

---

Dehqon bozorida arzonlashtirilgan oziq-ovqatlar yarmarkasi faoliyat olib bormoqda

Haftaning payshanba va yakshanba kunlari Qo'shtepa tumanidagi "Dehqon bozori" MCHJ maydonida barchaga bayramona kayfiyat ulash maqsadida aholi uchun turli ko'ngilochar bayram tadbirlari tashkil etilmoqda. Bolajonlar uchun esa, ertak qahramonlari ishtirokida quvnoq dasturlar bo'lib o'tmoqda.

Shuningdek, har kuni bozorda arzonlashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkasi ham faoliyat yuritmoqda.

Yarmarkada meva-sabzavotlar, un, yog', go'sht, tuxum, guruch va bayram dasturxoniga tortiladigan barcha mahsulotlar bozor narxidan arzon narxlarda sotilmoqda.

Yarmarkaga kelib, qulay narxlarda yangi yil bayrami dasturxonini uchun turli oziq-ovqat mahsulotlarini harid qilishingiz mumkin.

2024-12-25 11:19:20